Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318305

materiallar to'plami

KORXONADA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH VA OQIBATLARINI BARTARAF ETISH

Maxmudjonov Davronbek Ne'matjon o'g'li,
Andijon mahinasozlik instituti, "Transport va logistika" fakulteti, "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" o'quv yo'nalishi, 4-kurs,31-20-guruhi talabasi.

Annotatsiya

Islab chiqarish korxonalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha mavjud muammolar tahlili asosida ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar : *favqulodda vaziyatlar*, monitoring, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, potentsial xavfli obyektlar, xavfsizlik pasportlari, FVDT(Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi), kimyoviy xavfli obyekt.

Keyingi yillarda yangi qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatllar asosida potensial xavfli obyektlarda texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan quyidagi tadbirlar amalga oshirildi[1]:

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish sohasidagi eng muhim yo'nalishlar aniqlandi. Ular hududiy meyoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqishni, shuningdek yangi qabul qilingan qonunlarga muvofiq amaldagi hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni talab qiladi;

-mahalliy darajada qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi, mahalliy hokimiyat organlari va tashkilotlarning normativ-huquqiy bazasini yangi qabul qilingan qonunlarga muvofiqlashtirish bo'yicha ishlar tashkil etildi;

-favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va bashorat qilish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfini tahlil qilish va boshqarish tizimi qayta ko'rib chiqildi;

-viloyatlar hududi, potentsial xavfli obyektlar va tashkilotlarning xavfsizligi pasportlari ishlab chiqildi;

-favqulodda vaziyatlarda harakat qilish uchun boshqaruv organlari, kuchlar va vositalarni yaratish, tayyorlash va ta'minlash amalga oshirilmoqda;
favqulodda vaziyatlarning oldini olishning barcha sohalarida profilaktik tashkiliy, muhandislik va maxsus tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etildi;

-FVDT(Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi) boshqaruv organlarining boshqaruv xodimlarini va aholini xavf va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda harakatlarga o'rgatish tashkil etildi;

-favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish va xabardor qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish tizimi tashkil etildi;

-terroristik harakatlar sodir etilgan taqdirda xavfni kamaytirish va oqibatlarini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligi tashkil etildi;

Published: 10.11.2023

Cite this article: Maxmudjonov Davronbek Ne'matjon o'g'li (2023). Korxonada favqulodda vaziyatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va oqibatlarini bartaraf etish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318305

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammolari bo'yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda Respublika va mahalliy darajada ishtirok etildi;

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zahiralari yaratildi;

-aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organing va mahalliy hokimiyat organlarining nazoratini tashkil etish tizimi qayta ko‘rib chiqildi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida har yili quyidagi masalalar bo'yicha barcha kimyoviy xavfli obyektlar yaqinida yashovchi ishchilar, xizmatchilar va aholini muhofaza qilish holatini alohida tekshirib chiqilmoqda:

-aholini xavfli kimyoviy moddalardan himoya qilish chora-tadbirlarini rejalashtirish;

- kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarda atrof-muhitning ifloslanishini oldini olish yoki ko'lamini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muhandislik-texnik ta'minlash;

- razvedka, kuzatuv, nazorat va ogohlantirishni tashkil etish;

-kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarda individual va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish;

- kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishda ta’minotni tashkil etish;

-evakuatsiya tadbirlari;

- avariyalar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish;

- jamoat tartibini saqlashni ta’minlash;

-boshqaruv organlari xodimlarini, avariya-qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibini va aholini kimyoviy ifloslanish sharoitida harakatlarga o'rgatish.

Fikrimcha kimyoviy xavfli obyekt yaqinida yashovchi aholi xavfsizligini yaxshilash uchun qo‘shimcha quyidagi tadbirlarni rejalashtirilgan tarzda amalga oshirish kerak:

-oyektda ishlatiladigan ammiak miqdorini kamaytirish;

-uskunaning qo'shimcha diagnostikasini o'tkazish;

- texnologik uskunalarni modernizatsiya qilish;

- sanoat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan uskunalarni almashtirish;

-obyektlarni xavfsiz sovutgichlarga o'tkazish.

Terrorizm muammosi dolzarb bo'lib qolganligi va mumkin bo'lgan terrorchilik harakatining oqibatlari mamlakat miqyosida sezilarli bo'lishi mumkinligi sababli, bu masalaga alohida e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun radiatsiyaviy xavfli obyektlarning qo‘riqlanishini,yadro materiallarini, yadroviy inshootlarni va ionlashtiruvchi nurlanish manballarni muhofaza qilish qoidalari talablariga muvofiq tashkil etishga alohida e’tibor talab qilinadi[2].

Texnogen sohada favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha asosiy ishlar konkret obyektlar va ishlab chiqarishlarda amalga oshiriladi. Buning uchun avariyalarning oldini olishning uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladigan umumiy ilmiy,

muhandislik, konstruktorlik, texnologik tadbirlar qo'llaniladi. Bunday choralar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

texnologik jarayonlarni takomillashtirish, texnologik asbob-uskunalarning ishonchliligi va tizimlarning ekspluatatsion ishonchliligini oshirish, asosiy fondlarni o‘z vaqtida yangilash, yuqori sifatli loyiha va texnologik hujjatlardan, yuqori sifatli xom ashyolardan foydalanish, malakali kadrlardan foydalanish, samarali uskunalar yaratish va ulardan foydalanish. texnologik nazorat va texnik diagnostika tizimlari, zarur hollarda ishlab chiqarishni avariyalarsiz to‘xtatish, favqulodda vaziyatlarni lokalizatsiya qiliish va bartaraf etish va boshqalar.

Shunday qilib, respublikadagi kimyoviy xavfli obyektlarda amalga oshirilgan muhandislik-texnik tadbirlar kimyoviy xavfli obyektlarda favqulodda vaziyatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirdi.

Xulosa: Iqtisodiyot obyektlarida favqulodda vaziyatlarni oldini olish tadbirlarini mavjud meyoriy-huquqiy asoslar orqali amalga oshirilgan tadbirlar favqulodda vaziyatlarni oldini olishda katta ahamiyatga egadir.

***Ilmiy rahbar** : Xodjakulov M.N. –*

“Mehnat muhofazasi” kafedrasi dotsenti v.b.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5066 Farmoni;

2.O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni.